

Fan platformasi		
Fanning to'liq nomi: MEHNAT MUHOFAZASINI BOSHQARISH VA TASHKIL QILISH		
Fan kodi: MMBT2304	Fanga ajratilgan kreditlar (ECTS): 4	davomiyligi: 1 semestr
Kafedra: Sanoat ekologiyasi		
Fan qaysi yo'nalish talabalari uchun: Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (kimyo va oziq-ovqat sanoati)		
Fan ma'ruza o'qituvchisi: Raxmatullayeva Nigora Turgunovna		
Fanga ajratilgan umumiy soatlar: 1 2 0	Email: : nigora71@gmail.com	
Fan seminar mashg'ulotlari o'qituvchisi(lari):		
Prerekvizitlar: Kimyo sanoati va Tanlov turi: majburiy fan umumta'lim kadrlarni tayyorlash		
<p>Fanning qisqacha bayoni: Bo'lajak mutaxassislariga xavfsizlikni ilmiy asosini o'rgatib berish, talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyo qarashini shakllantirish vazifalarini o'zlashtirish, mehnat jarayonida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablari, xususiyatlari va oqibatlarini tekshirish, o'rganish va tahlil qilish choralarini bilish va hayotga tadbiiq qilishni o'rgatishdan iborat.</p>		

Fanning maqsadi: Talabalarga talabalarga mehnatni muhofaza qilishni davlat va iqtisodiyot obyektlari kesimida boshqarish tizimi, korxonalarda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ishlarni tashkil qilish va uning xuquqiy me'yoriy asoslari, ishlab chiqarish bo'limlari, xonalari va ish o'rinlarini attestasiya qilishning ahamiyati va maqsadi, mehnat muhofazasi bo'yicha tadbirlar turlari va ularni ishlab chiqish tartibi, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish, jarohatlanishlar va kasb kasalliklarini sabablarini o'rganish va ko'rsatkichlarini tahlil qilishni o'rgatishdan iborat.

Fan yakunida talabalar quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi:

- Hozirgi bosqichda mehnat muhofazasini boshqarish va tashkil qilishning asosiy vazifalari, korxonada mehnat muhofazasini tashkil qilish bo'yicha ishlarni olib borish, ishlab chiqarish faoliyatida yuzaga keladigan stresslar va ularni o'rganish; ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish tartibi 61020200 – Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi ixtisosligining hozirgi zamon talablari, ixtisoslikning mazmun mohiyatini **haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi**;
Ishlab chiqarish korxonalarida mehnat muhofazasini boshqarish va tashkil qilishning ishlab chiqarishda vujudga keladigan muammolarni xal etish, kimyo korxonalarida mehnat muhofazasi shart- sharoitlarini yaratishda, talabalar mustaqil ravishda o'z xissalarini qo'shish uchun mehnatni muhofaza qilish chora-tadbirlari, usullari, ishlab chiqarish tarmoqlarida xavfsiz ish sharoitini tashkil etish to'g'risida **ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak**.
- Xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlash sohasida qabul qilingan qonun hujjatlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarning asosiy talablarini; xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining bartaraf qilish bo'yicha yo'riqnomalar instruksiyalar ishlab chiqish; Mehnatni muhofaza qilish chora- tadbirlarini tashkillashtirish, korxonadagi xavfli omillarni bartaraf qilish texnikaviy va tashkiliy chora-tadbirlar **to'g'risida aniq malakalarga ega bo'lishi kerak**;

Ma'ruza mashg'ulotlari

Ma'ruza mashg'ulotlari katta sig'imli, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan o'quv auditoriyalarida olib boriladi.

Amaliy mashg'ulotlar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi, mashg'ulotlar interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Mustaqil ta'lim

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimotlar, guruh bilan ishlannmalar, referatlar tayyorlanadi. Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

№	Fan mavzulari	Ma'ruza soatlar hajmi	Amaliy mashg'ulot soatlar hajmi	Mustaqil ta'lim soatlari
1	“Mehnat muhofazasini boshqarish va tashkil qilish” fanining mazmuni, maqsadi, vazifalari.	2		3
2	Mehnat muhofazasini ta'minlovchi me'yoriy hujjarlarni		2	3
3	Mehnatni muhofaza qilishning me'yoriy hujjatlari. Mehnatni muhofaza qilish qoidalari, norma va yo'riqnomalari.	2		3
4	Mehnat muhofazasi bo'limlari faoliyatini va hujjatlarni yuritishni o'rganish.		2	3
5	Sanoat xavfsizligi va mehnat muhofazasini tashkil etish va boshqarishning ahamiyati.	2		3
6	Mehnat muhofazasi tadbirlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini hisoblash.		2	3
7	Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston Respublikasida mehnatni muhofaza qilishni tashkil etish.	2		3
8	Xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnomalar va ularni hujjatlashtirish tartiblari.		2	3
9	Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT).	2		3
10	Xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnomalar va ularni hujjatlashtirish tartiblari.		2	3
11	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi sohasida milliy siyosat, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi milliy dasturi.	2		3
12	Xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi bo'yicha ko'rsatmalar tuzish.		2	3
13	ISO 45001:2018 xalqaro standarti haqida ma'lumot. Tekshiruv va nazorat organlarining ahamiyati va vazifalari.	2		3
14	Ishlab chiqarish korxonalaridagi baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish.		2	3
15	Korxonada darajasida mehnatni muhofaza qilishni tashkil etish va boshqarish.	2		3

16	Ishlab chiqarish korxonalaridagi baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish.		2	3
17	Favqulodda vaziyatlar va avariya sodir bo'lganda xavfli vaziyatlarni oldini olishni rejalashtirish va amalga oshirish.	2		3
18	Ishlab chiqarish korxonalaridagi baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish.		2	3
19	Mehnat unumdorligini monitoring qilish va o'lchash, favqulodda vaziyatlarni, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklarni o'rganish.	2		3
20	Baxtsiz hodisalarni tahlil qilish uslublari va jarohatlanish ko'rsatkichlarini aniqlash.		2	3
21	Profilaktika va tuzatish ishlarini uzluksiz takomillashtirish.	2		3
22	Ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilar va talabalar bilan yuz bergan baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish tartibini o'rganish.		2	3
23	Mehnat muhofazasi qoidalari va talablariga o'qitish tizimi.	2		3
24	Jarohatlanish sabablarini bartaraf qilish uslublari.		2	3
Jami		24	24	72

Asosiy adabiyotlar

1. A. Mark , P. Friend James Fundamentals of Occupational Safety and Health. Berman Press. Germaniya, 2014.
2. O'.R Yo'ldoshev va b. Mehnatni muhofaza qilish. O'quv qo'llanma -T.: Mehnat, 2005.
3. Ye.I. Ibragimov, S. Gazinazarova, O'.R. Yuldashev Mehnat muhofazasi maxsus kursi Darslik –T.: TKTI nashriyoti, 2014.
4. Razzoqov A.B., Mamashev Sh. A., Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik –T.: “Iqtisodiyot” 2019.
5. A.A'zamov , T. Tursunov va b. Mehnatni muhofaza qilish. O'quv qo'llanma -T.: Sano-standart, 2013.
6. SH. M. Narziyev, SH.X. Kurbonov Hayot faoliyati xavfsizligi. O'quv qo'llanma. –T.: “Yangi nashr”, 2019. -234b.

Qo'shimcha adabiyotlar

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni.A
8. “Mehnat Kodeksi”. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami. –T.: 2005 y., 37-38 - son.

Axborot manbaalari

1. www.technology.ru
2. www.ziyonet.uz
3. www.lex.uz
4. www.mintrud.uz

Kontakt soatlari*: mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma'lumotlar va turli materiallar bo'yicha savollarga quyidagi grafik asosida o'qituvchiga murojaat qilishingiz mumkin:

№	Kun	Vaqt	Xona
1.	Shanba	10.00 – 12.00	2/204
2.	Shanba	10.00 – 12.00	2/204